



Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti, "Umumtexnik fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

QON BOSIMINING DINAMIK KO'RINISHARINI QAYD QILISH VA PROGNOZLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kon zarbasi va otlib chiqish xodisalaridan ogoxlantirish va prognozlash tadbirlari salmoqli darajada u yoki bu qoialarga ko'ra asoslanadi, shu sababli bu xodisalar o'zining tabiiy xolatiga yaqin va tog' jinsi massivining yuqori kuchlanishi, elastik energiyaning tez ajralishi va to'planish xususiyatlariga ko'ra aniqlash tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Foydali qazilmalar, dinamik ko'rinish, sanoat xavfsizligi, kon zorbalar, tektonik zorbalar, mikrozorbalar, hududiy prognozlash, tektonik buzilishlar.

Kirish: Karyerlarning chuqurligi ortib ketganda va kon ishlarini olib borishda qiyin geologik va gidrogeologik sharoitlarga bog'liq ravishda foydali qazilmalar yer osti usulida qazib olinadi. Tog' jinsi massivi kuchlanganlik holati va kon bosimining o'zgaruvchanligi pog'onalarda, karyer bortlarida va yer osti lahimlarida deformatsiya jarayonlarining ko'proq vujudga kelishiga olib keladi. Shuning uchun yer va yer osti boyliklarini himoya qilish va ulardan muvofiq ilmiy asoslangan tarzda foydalanish, yuqori ishlab chiqarish manfaatlarida ishlarni olib borish xavfsizligi choralarini ko'rish lozim. Bularni faqatgina konchilik ishida ilmiy-texnik rivojlanishni jadallashtirish asosida amalga oshirish mumkin. Chunki barcha vazifalarga javob berish uchni ilmiy texnologik rivojlanishni jadallashtirish, bog'liq ravishda mutaxassislarni tayyorlash va ko'paytirish lozim.

Kon qazib chiqarish ishlarining kundan-kunga yer qa'riga chuqurlashib borishi, kon ishlari hajmi ortishiga va yer ostida ish olib borish xavfi ortishiga olib kelmoqda.

Kon sharoitining noqulayligi, yer qarida hanuzgacha konchilarga ko'plab mushkulliklar va kutilmagan xavfli hodisalarga duch kelishiga, shaxta va rudniklarda halokatlar va qurbanlar sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Foydali qazilmalarni qazib olishda yuz beradigan baxtsiz xodisalar, xavfli vaziyatlarni oldini olishning birgina yo'li, kon ishlarini olib borish va qazish ishlari jarayonlari haqidagi asosiy qoidalar va usullar, ularni amalga oshirishning xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash haqida kuchli bilimga ega bo'lish va uni amalga tadbiq eta olishdir.

Qon bosimining dinamik ko'rinishlarini qayd qilish.

Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qazib olishda yer osti inshootlarini qurishning muhim belgilari kon bosimlarinin dinamik xodisalarini prognozlash orqali olinadi. U ob'ektlarni to'g'ri loyihalash, lahimlar o'tishda muvofiq uslublar va qazib olish tizimlarini tanlash, hamda kon ishlarini samaraliligi va bexatarligini ta'minlashga imkon beradi.

Dinamik ko'rinishlarni prognozlashda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- a) tog' jinslarning titrashga va otishga xavflilagini aniqlash (shu jumladan foydali qazilmali qatlamlar yoki yotqiziqlar ham) va xavfli deb hisoblangan jinslarni joylashish chuqurligida baholash;
- b) dinamik xodisalar yuz berishi mumkin bo'lgan uchastkalarni aniqlash;
- v) dinamik xodisalar yuz berishini vaqtli boshorat qilish.



Boshqacha aytganda, har qanday prognozdagi singari kon bosimlarining dinamik ko‘rinishlarini prognozlashda ham ularni muhitda (“a” va “b” bandlar) va vaqtida (“v” banda) bashoratlash ko‘zda tutiladi.

Hozirgi vaqtida barcha razvedka qilinayotgan va qazib olinayotgan konlar, loyixalanayotgan va qurilayotgan rudniklar, shaxtalar, tonnellar va boshqa yer osti inshootlarida kon zarbasi va otilishlar paydo bo‘lishi mumkinligini aniqlash bo‘yicha ishlar albata bajarilishi kerak.

Bu ishlar bo‘yicha konlar yoki uning bir qismi kon zarbasi va otilishlar bo‘yicha:

- Xavfsiz,
- Dinamik xodisalarga moyil,
- Xavfli.

Dinamik hodisalar bo‘yicha xavfli va moyil bo‘lgan barcha konlar qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik jixozlash konservatsiya qilish va ishlatish, qazib olishning loyihaviy xujatlashtirishda sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o‘tkazilishi va “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi haqida”gi davlat qonuni talablari bajarilishi shart.

Xususan, zarbalariga moyil konlarga yer osti inshotlari qurish ob’ektlari va tog‘ jins massivlari yoki uning bir qismi quyidagi chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

- Tog‘ jinslari va rudalarning elastik xususiyatlari yuqori bo‘lishi, kuch ta’siri ostida mo‘rt buzilish qobiliyati mavjud bo‘lishi;
- Konlar (yer osti inshootlari qurilish ob’ektlari) yoki uning bir qismi, yani tog‘ jinslarning otilishi yuz bergan joylar, turkilar yoki kon zARBALARI ro‘y bergan joylar qo‘shni rudnik (shaxta)lardagi shunday ruda tanalari va o‘xhash geologik sharoitlarning chegaraviy shartlariga moslashtirilishi.

Kon zARBALARIga xavfli konlar (yer osti inshootlari qurilish ob’ekti), ya’ni:

- Mikrozarbalar va kon zARBALARI aniqlangan;
- Agar prognozlash tog‘ jins massivining zARBAGA xavflilik darajasini aniqlash uchun bo‘lsa, mahalliy instrumental usulda “Xavfli” (zARBAGA xavfli) toifada aniqlanadi.

Yer osti kon ishlari bilan ish olib boradigan har bir kon korxonalaridagi **kon zARBALARI bo‘yicha xavfli va moyil** ob’ektlarda ilmiy uslubiy institutlar boshchiligidagi kon zARBALARI oldini olish va maxsus prognozlash xizmatlari tashkil qilinishi kerak. Bu xizmatlarni nazorat qilish faoliyati bilan korxonaning bosh muxandisi shug‘ullanadi. Bu xizmatlarning majburiyatlariga barcha xolatdagi kon zARBALARI, mikrozarbalar va turkilar, otilishlar, lahimlarning zARBAGA xavflilik toifasini aniqlash natijalari, dinamik xodisalarning oldini olish bo‘yicha qo‘llanilgan tadbirlar bilan uning samarasini baholash kiradi.

O‘ta murakkab kon-geologik sharoitlarda (yirik tektonik buzilishlar va katta chuqurlikda qazib olishda, zamonaviy tektonik xarakatlar va kuchli seysmik aktiv xududlarda, er yuzasi tog‘li relyefga va boshqa murakkablashtiruvchi omillarga ega bo‘lgan va kon-tektonik zARBALARI paydo bo‘lishi mumkin bo‘lganda) tog‘ jins massivi holatini uzluksiz nazorat qilinishini tashkil qilish zarur. Bu ishlar seysmostansiyalar qurish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Kon bosimining dinamik ko‘rinishini makonda prognozlash ishlari zarba va otilishga xavflilikni hududiy va mahalliy prognozlash turlariga bo‘linadi.



Xududiy prognoz konning geologik tavsifi va tog‘ jinslarning xususiyatlarini o‘zaro bog‘iqlikda, kon zARBALARI va otlib chiqish hodisalarining xavflilik nutai nazaridan asoslanadi.

Hududiy prognozlash ma’lumotlar hududiy kon qazish ishlarini rivojlantirishning kompleks loyihasini tuzishda, shaxta va rudniklarning loyihasini tuzishda, yangi gorizontda ochish va qazib olishni loyihalashtirish bosqichida hisobga olinadi.

Hududiy usulda prognozlash yaqinlashtirish bilan aniqlanadi, shu sababli ular chegaralangan miqdordagi ma’lumotlar bo‘yicha tog‘ jins massivining xususiyatlari va holatlari bilan xarakterlanadi. Uning ishnochilik darajasi ko‘rilayotgan massivning o‘rganilganligi bilan bog‘liqlikda topiladi. Bu ma’lumotlar konlarni ochish, tayyorlash va qazib olishda. mahalliy prognozlash usuli bo‘yicha tekshiriladi va to‘g‘irlanadi.

Mahalliy prognoz tog‘ jinslarining mustahkamlik-deformatsiya xususiyatini aniqlash, kuchlanish ta’sirini tajribaviy o‘lhash, jinslardagi gaz bosimini aniqlash, jinslarning g‘ovakliligi, gaz o‘tkazuvchanligi, namligi, sorbsiyalash hajmi va xossalarni o‘zgarishini baholash va shaxta maydoni uchastkalarini ochish, bloklarni ekspluatatsiyaga tayyorlash, alohida lahimplar o‘tish tadbirlari bo‘yicha aniq uchastkalarning holatini baholashga mo‘ljallangan.

Otilishga xavflilikni mahalliy prognozlashda, otilishlarning potensial imkoniyati bilan bog‘liq u yoki bu darajadagi asosiy omillarni hisobga olib, kompleks ko‘rsatkichlarning miqdoriy tavsifidan aniqlanadi.

Mahalliy prognozlash natijalari asosida lahim atrofidagi massiv uchastkasini ikki toifa: “Xavfli” va “Xavfsiz”ga ajratiladi.

Lahimning konturoldi qismida massivning kuchlanish holati “Xavfli” toifasiga mos keladi, bunda kon zARBASI yuz berish ehtimoli mavjud bo‘ladi. Bunday uchastkalarda zarbaga xavfsiz xolatga keltirish maqsadida profilaktik tadbirlar bajarilmaguncha kon ishlari olib borish man qilinadi. Keltirilgan tadbirlarni amalga oshirmasdan, odamlarning o‘tishi taqiqlanadi. Zarbaga xavfsiz holatga keltirish loyixa bo‘yicha olib borilib, korxonaning bosh muxandisi tomonidan tasdiqlanishi shart.

Ilgaridek “Xavfli” toifasida bo‘lgan joylarda zarbaga xavflilikni muttasil nazorat qilish zarur, u ham lahimplarda kon-geologik va kon-texnik ahvolning o‘zgarishi yoki zarbaga xavflilikning tashqi belgilari paydo bo‘lishiga ko‘ra bajariladi.

“Xavfsiz” toifasi zarbaga xavfsiz holatlar va zarbaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmaydigan holatlarga mos keladi.

O‘ta murakkab ko‘rinishdagi uchinchi turdagи prognozlash kon zARBALARI yoki otlib chiqish hodisalarini vaqtli bashoratlashdir.

U tog‘ jins massivi yoki lahimplarning holatini joriy prognozlashni bajarish maqsadida tashkil qilinadi.

Bu turdagи qisqa muddatli prognozlash ko‘zda nazorat qilish va instrumental kuzatishlarga asoslangan bo‘lib va kon zARBALARI va otlib chiqish darakchilarini qayd qilishga asoslanib, kon ishlarini olib borish jarayonida jinslarning kuchlanishi gazodinamik rejimning o‘zgarishi qayd qilinadi, dinamik jarayonni namoyon bo‘lishi ba’zida bir necha minut yoki hatto sekund ichida aniqlanadi. Joriy prognozlashning asosiy vazifasi massiv uchastkasi va lahim holatini baholash va uchastka holatining xavfliliyi yoki aksincha xavfsiz ekanligidan o‘z vaqida ogohlantirishdir.

Xulosa: Kon zARBASI va otlib chiqish xodisalaridan ogohlantirish va prognozlash tadbirlari salmoqli darajada u yoki bu qoialarga ko‘ra asoslanadi, shu sababli bu xodisalar o‘zining tabiiy xolatiga yaqin



va tog‘ jinsi massivining yuqori kuchlanishi, elastik energiyaning tez ajralishi va to‘planish xususiyatlariga ko‘ra aniqlanadi.

Bu yerda ushbu muammoni yechish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Tog‘ jins massivining kuchlanish darajasi va uning pasayishini aniqlash shu jumladan tog‘ jinsli yoki foydali qazilmali massivning kerakli qismini xavfli kuchlanishlardan engillashtirish;
- Massivning xossasi va mexanik xarakteristikasini o‘zgarishi tadqiq qilish (birinchi navbata, plastik deformatsiyalanish xususiyatini oishirish maqsadida).

Bundan tashqari, otilib chiqishlardan ogoxlantirish va prognozlashda konlarning texnologik rejimini qo‘sishma tadqiq qilish va qatlamlar va yotqiziqlarni gadsizlantirishdan iborat.

Asosiy adabiyotlar:

1. Baklashov V.I. va boshqalar Geomexanika Uchebnik. MGGU. Osnovi geomexaniki. 2004. 1-tom. 208 s.
2. Baklashov V.I. va boshqalar Geomexanika Uchebnik. MGGU. Osnovi geomexaniki. 2004. 2-tom. 249 s.
3. Dimitriev A.P. Razrushenie gornix porod. M.: MGGU, 2004. –80 s.
4. Pevzner M.E., Iofis M.A., Popov V.N. Geomexanika. Uchebnik. M.: MGGU, 2005. –438 s.